


“TASDIQLAYMAN”
Boshqaruv Raisining
birinchi o‘rinbosari v.b


U. Qo‘qonboyev
“ ” aprel 2026 yil

AKSIYADORLIK TIJORAT “ALOQABANK”
B A Y O N N O M A

2026-yil 16-aprel

Toshkent shahri

Ma‘ruzachi: E. Amonov – Komplaens nazorat boshqarmasi boshlig‘i.

Ishtirok etdilar: AT “Aloqabank” mas‘ul xodimlari va HKXKM Korporativ biznes bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari (jami 70 kishi)

KUN TARTIBI:

“Bankda korrupsion xavf xatarlarni oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar hamda amaliyotda uchrayotgan korrupsion holatlarning tahlili”

(U. Qo‘qonboyev, E. Amonov, B. Selhonov)

Yig‘ilishda AT “Aloqabank” Komplaens nazorat boshqarmasi boshlig‘i E. Amonov Bankda korrupsion xavf xatarlarni oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar hamda amaliyotda uchrayotgan korrupsion holatlarning tahlili to‘g‘risida ma‘ruza qildi.

Hususan, Davlat rahbarining “Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda, Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi” degan so‘zlari, yig‘ilish qatnashchilari yana bir bor ta‘kidlandi. Korruptsiyaviy xavf-xatarlar yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Korrupsion xavf-bu Bank manfaatlariga zid ravishda shaxsiy manfaatlar bilan bog‘liq holda o‘z mansab mavqeidan noqonuniy foydalanish natijasida xodimning kasbiy faoliyatida kutilgan natijadan chetga chiqish ehtimoli.

Yig‘ilish davomida Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va jinoyatlar to‘g‘risida tushuntirishlar berildi, jumladan:

1. korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar—O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 61¹, 193¹, 193² va 193⁴-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

2. korrupsiyaga oid jinoyatlar — O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi “g”-bandi, 168-moddasining uchinchi qismi “v”-bandi, 192⁹ va 192¹⁰, 205, 209-214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan

jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar ekanligi tushuntirildi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Obyektiv xususiyatga ega korrupsiyaviy xavf-xatarlar: zaif huquqiy institut, yondashuv, amaliyot, qonunchilik, qoidalar va boshqalar).

Subyektiv xususiyatga ega korrupsiyaviy xavf-xatarlar (korrupsiyaga moyillik, korrupsiyaviy hulq, huquqiy nigilizm, salbiy motivatsiya va b.)

Shu bilan birga, Bank tizimida uchrashi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavflar tahlil qilindi, misol uchun:

Kredit ajratishda manfaatdorlik - Mas'ul xodim tanish kompaniyaga moliyaviy holati yetarli darajada baholanmasdan, ta'minot talablari yumshatilgan holda kredit ajratish bo'yicha ijobiy xulosa berishi xavfi;

Xaridlarda narxlarni sun'iy oshirish - Xarid jarayonida yetkazib beruvchi bilan oldindan kelishuv orqali tovar yoki xizmat narxi bozor qiymatidan yuqori ko'rsatilib, xarid natijalari shu asosda shakllantirish xavfi;

Mijozlardan noqonuniy to'lov talab qilish - Bank xodimi kredit yoki boshqa xizmatni tezlashtirish maqsadida mijozdan rasmiy tartibdan tashqari "minnatdorchilik" sifatida pul talab qilish xavfi.

Shartnoma tanlovlarida adolatsizlik - Tanlov mezonlari ma'lum bir kompaniya manfaatlariga moslashtirilib, boshqa ishtirokchilarga teng sharoit yaratilmagan holda g'olib oldindan belgilab qo'yish xavfi.

Korrupsiya xavfini kamaytirish bo'yicha biznes jarayonlarni raqamlashtirish, inson omilini qisqartirish, xodimlarni muntazam o'qitish, o'rganish va monitoring ishlarini tashkil qilish, shaffof xarid tizimini yo'lgan qo'yish, korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish taklif etildi.

Bugungi kunda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirilishida har bir soha va tarmoq xodimlarining o'z ishiga nisbatan sitqidildan yondashuvi, o'zlariga yuklatilgan vazifalarni birinchi navbatda halollik va adolat mezonlariga tayangan holda bajarishlari hal qiluvchi o'rin tutadi.

Mazkur davra suhbatida ishtirokchilarning diqqat-e'tibori bank tizimida korrupsiya, ta'magirlik va poraxo'rlik kabi zararli illatlarga qarshi kurashishda o'zaro hamkorlik qilish masalalariga qaratish muhomama qilindi.

Iqtisodiyotning muhim bo'g'ini bo'lmish bank-moliya tizimidagi korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, bunday salbiy holatlarning oldini olish, kelib chiqish sabablarini tahlil qilish, bu boradagi korrupsiogen omillarni bartaraf etish masalalari dolzarflik kasb etib, boshqa sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashishning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bu faoliyat nafaqat alohida institutlarga zarar yetkazadi, balki aholining butun moliya tizimiga ishonchini yo'qotadi. Bank faoliyatidagi korrupsiya keng ko'lamli faoliyatni qamrab olishi mumkin.

Ma'ruza yakunida ishtirokchilar tomonidan ularni qiziqtirgan savollar berildi va tinglovchilar berilgan savollarga to'liq javob olishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yig'ilish

QAROR QILADI:


1. Bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar hamda amaliyotda uchrayotgan korrupsion holatlarning tahlili bo'yicha seminar-trening samarali o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Komplayens nazorat boshqarmasi boshlig'i E.Amonov zimmasiga Bank tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiya holatlarini oldini olish bo'yicha bankning barcha tarkibiy bo'linmalari va hududiy kompleks xizmat ko'rsatish markazlari hodimlari uchun doimiy ravishda maxsus seminarlar otkazish hamda tegishli tashkilotlarning mutaxassislari ishtirokida davra suxbatlarini olib borish vazifasi yuklatilsin.

3. Xodimlarni boshqarish Departamenti direktori Z.Umarkulova zimmasiga xodimlarni yuksak huquqiy ongi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlar, va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat'iy rioya qilish ruhida tarbiyalash ishlarini olib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorni samaralari ijro etilishini nazorat qilish Boshqaruv raisi o'rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish kotibi:



U.Abulkosimov